



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I.Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E.Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O.Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I.Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B.Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O.Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N.Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O.Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У.Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksизликни таъминлашнинг педагогик-психологик механизmlari
- 53 **G.S.Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- 59 **P.Мусумонов**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўқув жараёнига нисбатан интизомсизликка оид педагогик ва психологик қарашлар
- 65 **I.Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F.Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **У.Ю.Файзуева**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей с ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A.Abduljalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J.Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X.Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F.Qurbonova**
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R.Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O.Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S.Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A.Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minlash omillari



UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIMNI SIFATLI TA'MINLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

G.S.ABDULLAYEVA,
CHDPU «Maxsus pedagogika»
kafedrası v.b.professor, p.f.d.

Hozirgi vaqtda oliy ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish bor-yicha axborot va kasbiy kompetensiyani samarali shakllantirishning pedagogik shartlari aniqlandi va amaliy jihatdan tasdiqlandi va bunda axborot kompyuter texnologiyalarning ahamiyati katta.

Tayanch so'zlar: Uzluksiz ta'lim, inklyuziv ta'lim, inklyuziv muhit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tayanch, umumiy kasbiy, kasbiy kompetensiyalar nogironlikka ega talabalar.

В настоящее время определены и практически обоснованы педагогические условия эффективного формирования информационно-профессиональной компетенции по использованию информационных технологий в высшем образовании, и в этом заключается значимость информационных компьютерных технологий.

Ключевые слова: непрерывное образование, инклюзивное образование, инклюзивная среда, информационно-компьютерные технологии, опорные, общепрофессиональные, профессиональные компетенции, студенты с ограниченными возможностями.

Currently, the pedagogical conditions for the effective formation of information and professional competence in the use of information technologies in higher education have been determined and practically justified, and this is the significance of information computer technologies.

Key words: continuing education, inclusive education, inclusive environment, information and computer technologies, basic, general professional, professional competencies, students with disabilities.

Dunyoda innovatsion o'qitishning imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilarga mos yondashuvlarini joriy etishning modernizatsion didaktik tizimini takomillashtirish, talabalarda axborot va kasbiy kompetensiyalarni integrativ shakllantirishning samarali shakl, zamonaviy metod va vositalarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan talabalarda, xususan, uzluksiz ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini axborot-kommunikativ texnologiyalar asosida kreativlik, progressivlik darajalarda rivojlantirishning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish, tashkiliy-metodik



asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogika yo‘nalishi talabalarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini AKT sohasi bilan bog‘liqlikda rivojlantirish tadqiqotchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, axborotlarni tanlash, modullarkesimida moslashtirishni va bu jarayonni ratsional modellashirish uchun bo‘lajak mutaxassislariga xos individual xususiyatlar, ta‘limdagi alohida ehtiyojlarning «kompleks portreti»ni tarkib toptirishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta‘limning barcha bo‘g‘inida mehnat bozori talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ishlab chiqarishning maqsadli integratsiyasini ta‘minlash asosida o‘qitish sifatini yaxshilash, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etish uchun ta‘lim oluvchilarning, xususan, imkoniyati cheklangan talabalarning o‘zlashtirish ehtiyojlariga javob beradigan moslashuvchan zamonaviy metodlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining mazmuni va dizaynini o‘zgartirish talab etiladi. «Sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash» kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa talabalarda kasbiy va axborot-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, oliy ta‘limda adaptiv o‘quv muhitini yaratishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Respublikada «2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni Rivojlanish Strategiyasi To‘g‘risida»dagi Davlat siyosati darajasida, nogironligi bo‘lgan shaxslarning mamlakat ijtimoiy hayotida faol jalb etilishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va ularga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Respublikamizda tibbiyot, maxsus ta‘lim sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi[1].

Oliy inklyuziv ta‘lim sharoitlarida nogironligi bo‘lgan talabalar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatining tarkibiy, darajaviy va mezoniy xarakteristikalari aniqlandi[3].

Ma‘lumki, pedagogika yo‘nalishi talabalarining o‘qituvchilik faoliyatiga tayyor bo‘lishining muhim mezonlaridan biri bu turli toifadagi o‘quvchilar bilan ishlashni bilish hamda moslashuvchan yondashuvlarni tanlash, qo‘llashni ham uddalashi lozim. Sog‘lom talabalar uchun nafaqat maktablarda tashkil etiluvchi amaliyotlar, balki ular bilan bir sharoitda tahsil olayotgan talabalarning oliy ta‘limdagi akademik-ijtimoiy



faoliyati ham kasbiy faoliyatga kompleks tayyor bo'lishini ta'minlashda muhim omildir. Chunki sog'lom talabalar nogironligi bo'lgan va ta'limda alohida ehtiyoji bor shaxslarning o'qish, o'rganish va atrofdagilar bilan muloqot qilishidagi o'ziga xos tomonlarni bevosita kuzatadilar, zarur uquvlarni o'zlashtiradilar. O'z-o'zidan talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatda bir sinfda ham sog'lom va ham nogiron o'quvchilar o'qishi mumkin bo'lgan sharoitda metodik ishlarni amalga oshirishga ham tayyor bo'lishiga erishiladi.

Ta'limda alohida ehtiyojli shaxslarning axborotlarni qabul qilishi, o'zlashtirishi, qayta ishlashi va o'z hayotiy hamda kasbiy ehtiyojlari yo'lida ishlatishi sog'lom insonlarga nisbatan o'ziga xos kechadi. Bu o'ziga xoslik ulardagi cheklangan imkoniyatlar darajasi va ijtimoiy og'irlik ko'lami bilan bog'liqdir. Tadqiqot doirasida oliy ta'limda turli toifadagi talabalarning muvaffaqiyatli o'qish sharoiti va muhitini inklyuzivlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishni targ'ib etuvchi trening dasturi ishlab chiqildi. Mazkur trening ixtiyoriylik asosida va ishtirokchilar uchun qulay vaqtlarda o'tkazilishi rejalashtirilgan mashg'ulotlar orqali amalga oshirildi.

Treningdan kutilgan maqsad talabalarning akademik-ijtimoiy trayektoriyasini faollik va hamkorlik muhitida tashkil etilishini ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga ta'sir etish hisoblanadi. Asosan trening mazmuni oliy ta'limda infratuzilmaning darajasi va sifatidan qat'i nazar turli toifadagi (sog'lom, salomatligida va o'zlashtirishida turli muammolari bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan) talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborot muhitini moslashtirishni hamda subyektlar o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvlardan tashkil topdi. Trening dasturi va mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash jarayonida oliy ta'lim pedagoglari va boshqa ta'lim ishtirokchilari uchun alohida ehtiyojlar, nogironlik toifalari xususida nazariy va vizual materiallarni jamlashga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shuning uchun biz oliy ta'limda inklyuziya sharoitini ta'minlashga erishishni mazmuniy jihatdan qulaylashtirish maqsadida nogironlik toifalari bo'yicha shartli belgilar va grafiklarni ajratib oldik. Ular quyidagi jadvalda keltirildi.

Jadvalda berilgan belgilardan foydalangan holda trening mashg'ulotlari olib borildi. Bunda sog'lom talabalarning alohida ehtiyojli guruhdoshlari bilan muloqotga kirishishini maqsadli tashkil etishda nogironlikka mansub talabalarning pedagogik-psixologik xususiyatlari jamlangan nazariy ma'lumotlardan foydalanildi. Quyida ushbu ma'lumotlar keltiriladi.



Rasm-1 seminar TDPUda o'qituvchilar
nogiron bilan



Rasm-2 seminar TDPUda
talabalar bilan

O'tkazilish mazmuni, shakllari, usullari bo'yicha. Texnologiyalar kombinatsiyasining xilma-xilligi quyidagi algoritmlarga muvofiq paydo bo'ladigan axborot vazifalarining tabiatiga qarab tizimni moslashuvchan tarzda qayta sozlash imkonini beradi:

Tabilanolim jarayoni mehnat bozoriga turli sohalarida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarish maqsadini ko'zlar ekan, bitiruvchilarga ijtimoiy buyurma qanday talablarni qo'yganini va bu talablarga sog'lom talabalar qatori nogironligi bo'lgan talabalar ham to'liq javob berishi uchun qanday tashkiliy-pedagogik shartlar zarurligini ko'rib chiqamiz. Yuqoridagi paragrafda nogironligi bo'lgan talabalarning ta'limdagi alohida ehtiyojlari xususida ma'lumotlar keltirildi. Mazkur toifa talabalar uchun nafaqat ta'lim shakllarini, balki undagi yondashuvlarni ham moslashtirish maqsadga muvofiqligi bir qancha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Bizning tadqiqotimiz davomida nogironligi bo'lgan va ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan talabalarning OTM dagi akademik faoliyati va ijtimoiy trayektoriyasiga qanday shartlar ta'sir qiladi va qaysi omillar ular uchun ta'lim jarayonini qulaylashtiradi degan savol ustuvorligida tajriba-sinov ishlari olib borildi.


Nogiron talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning eng samarali ta'siriga erishish uchun faqatgina psixokorreksion ta'sirlardan foydalanish yetarli emasdir. Bular psixologik ta'sirning boshqa turlari bilan, xususan, psixologik ma'rifat, psixoprofilaktika, o'qituvchilarning axborotiy ta'minlanishi va psixologning boshqa, nogiron talabalarni OTMda o'qish bosqichida psixologik qo'llab-quvvatlashning yagona strategiyasini shakllantirishi kerak bo'lgan faoliyat turlari bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur.

Sog'liq imkoniyatlari cheklangan talabalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish va mazmuni masalalarini ko'rib chiqish natijalarini

sarhisob qilib, shuni ta'kidlash kerakki, OTMda bu ishni tashkil etish zarurati hozirgi vaqtda isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bunda, eng maqbul yo'l, bu tashkiliy qo'llab-quvvatlash modeli bo'lib, unda sog'liq imkoniyatlari cheklangan talabalarga yordam berish, barcha talabalarni umumiy ijtimoiy-psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning uzviy qismi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan talabalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishida ularning OTM ta'limiga moslashishi muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda imkoniyati cheklangan talabalarning alohida ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, zarur maxsus ta'lim sharoitlarini yaratish, talabalar guruhida maqbul ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish kerak. OTMda o'qish davrida ularning somatik holatidagi salbiy omillar, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi anglashdagi, «Men-kontsepsiya»sidagi va o'z joyini topishidagi o'zgarishlar tufayli shaxs destruktiv xususiyatlarni rivojlantirish xavfi yuqori bo'lgan sog'liq imkoniyatlari cheklangan talabalarga alohida e'tibor berilishi kerak. SiChlik talabalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy resurslaridan biri talabalarning «inklyuziv» guruhidagi shaxslararo hamkorlik va o'zaro yordam salohiyati bo'lishi mumkin.

Oliy inklyuziv ta'lim sharoitida ma'lumotlarga kirish qulayligini rivojlantirishning pedagogik shartlarini amalga oshirishdan oldin va keyin o'qituvchilar o'rtasida uslubiy kompetentsiyaning individual tarkibiy qismlarini va uning rivojlanish darajalarini diagnostika qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: anketa, suhbat, kuzatuv, o'qituvchilar faoliyati mahsullarini o'rganish, bilim va ko'nikmalarni test diagnostikasi, ekspert tadqiqoti usuli, uslubiy xarakterdagi vaziyatli muammolarni bartaraf qilinishi, diagnostika usullari, matematik statistika usullari.



Rasm-3 Defakademy media-kompleksidan foydalangan holda nogiron talabalarning kasbiy hamda axborot kompetensiyasini rivojlanish darajasini o'rganish samaradorligi modeli



Maxsus pedagogika yo'nalishi bo'yicha nogiron talabalarning kasbiy faoliyatining muayyan tarkibiy qismlari – pedagogik amaliyotda metodikada belgilangan mezonlar bo'yicha ko'rik o'tkazilishida tahlil qilish, nogiron talabaning xatti-harakatlarini metodikada ko'rsatilgan harakatlariga, talablarga muvofiq tahlil qilish, ma'lumotlarni belgilangan talablarga muvofiq tahlil qilish va umumlashtirish hamda qo'llaniladigan diagnostika texnikasi mantiq'idan kelib chiqib xulosalar qilish.

Adabiyotlarro'yhati:

1. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya/ BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-qarori; O'zbekiston respublikasi oliy kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish haqida»gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi «Adolat» huquqiy axborot markazi.
2. Muminova L.R., Shomaxmudova R. Sh. Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion-rivojlantirish dasturining metodik asoslari. -T.: «Razzoqov O.J. bosmaxonasi». 2007.-27 b..
3. Korolevskaya T.K. Vidimaya rech- 3 // Defektologiya 1998. № 5. -s. 63.
4. Abdullayeva G.S. Maxsus va inklyuziv ta'limda AKTning o'rni. Monografiya. - T.: Mahalla va oila, 2022. - 179 b.
5. Abdullayeva G.S. The Impact of Modern Innovative Educational Technologies for The Environmental Education of Students with Hearing Impairments // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2022. May. ISSN 1475-7192. Volume 24. Issue 9. - P. 2380-2388 (Scopus).
6. Abdullayeva G.S. Nauchno-pedagogicheskii klaster kak osnova formirovaniya inklyuzivnoy obrazovatelnoy sredy // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriyo'. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnal. - Nukus, 2020. Maxsus son № 3. -B. 132-137 (13.00.00. №20).
7. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T.: «Nihol», 2013. -275 b.
8. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.